

## **CHET TILNI O'QITISHDA ZAMONAVIY AXBOROT VOSITALARINING ORNI**

**Kambarova Dildora Ibrohimovna**

**Abstract:** This article discusses teaching English through modern media sources, particularly internet source - You Tube. The advantages and effectiveness of the use of You Tube in teaching grammar have been analysed.

**Key words and expressions:** foreign language teaching methods, the Principle of sufficiency of necessity, teacher centered, student centered, Inductive method, descriptive way of teaching, language learning, language acquisition, teaching grammar, learning styles, language skills, motivation, new media, internet sources, YouTube, authentic, communication.

Chet til o'qitish metodi deyilganda esa, chet til o'rgatishning umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta'minlovchi muallim va o'quvchi faoliyatining majmuasi tushuniladi. Bizning fikrimizcha ingliz tili dasrlarida zamonaviy axborot vositalardan foydalanib o'qitish ham maqsadli bo'lishi kerak. O'qituvchi o'z metodik maqsadiga erishish uchun darsni mukammal darajada turli rang- barang vositalar ishtirokida rejalashtirish kerak bo'ladi. Bunda axborot vositalari mashg'ulot jarayonida yordamchi vositalar sifatida xizmat qiladi va o'qituvchi o'z maqsadi va yutug'iga erishishida yordam beradi. Xozirda o'quv jarayoni (teacher centred) o'qituvchiga emas balki talabaga (student centred) qaratilgan bo'lib, ularni bilim ko'nikma va malakalaridan tashqari mustaqil ta'lim olishini ham rivojlantirish muximdir. Talabalarni mustaqil ta'lim olishini ortishi yangi ta'lim resurslaridan foydalanishni taqozo etadi. Bunday vazifalarni amalga oshirish uchun o'qituvchi zamonaviy axborot kommunikativ vositalaridan ta'lim dasturlaridan va internet resurslaridan samarali foydalanishi kerak. Ushbu veb saytlar va mobil ilovalar grammatikani o'rganishga qaratilgan ba'zi ilovalar grammatikani o'rgatishning an'anaviy yondashuvlariga asoslangan bo'lib, chet til o'qitishning (The Principle of Sufficiency of necessity) "Yetarlilik prinsiplari"ni ta'minlay olmasligini ko'rsatadi. Vaxolanki, chet til grammatikasini o'rgatishning zamonaviy yondashuvlari va metodlarining maqsadi grammatik strukturadan og'zaki va yozma muloqotda foydalanish bo'lganligi tufayli asosan mash g'ulotlarda "Inductive method" (Descriptive way of Teaching) qo'llanilishi samarali bo'lishi mumkinligi tadqiqotchilar ishida o'z isbotini topgan. Xususan, When to teach Grammar? How to teach Grammar? Qachon o'rgatish kerak va qanday o'rgatish kerak? prinsiplariga asosan olimlarning xozirgi grammatikani o'rgatishga doir fikrlarini o'rgandik. Sternning fikriga ko'ra

“o‘qituvchi grammatikani o‘rgatishda avval misollar keltiradi, o‘quvchilar misollarni ko‘radilar va shundan so‘ng o‘qituvchi grammatik qoidalarni tushuntiradi . Stern bu metod haqida gapning tuzilishini: “Misol Amaliyot -Umumiy -Qoida” tarzida ko‘rsatib beradi . S.Thombury, “How to teach?” “Grammatikani qanday o‘rgatish kerak?” nomli kitobida shunday degan: “Ingliz tili grammatikasini o‘qitishda “Induktiv yondashuv” ko‘pincha “to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘rgatish metodi” va “tabiy yondashuv” prinsiplari bilan bogliq . Ingliz tili o‘qituvchilari uchun maxsus dasturda berilgan ma’lumotlarga ko‘ra ham xozirda grammatikani o‘rgatishda an’anaviy metod ya’ni Deductive metod emas balki “Inductive Metod” qo‘llashimiz zarur. Zamonaviy induktiv metod o‘quvchilarning komunikativ kompetensiylarini oshirishga qaratilgan bo‘lib, biz o‘quvchilarimizga yangi gapni tuzishni autentik va o‘zaro muloqot qilishda yaratilishi amalda bajarishga yo‘naltirishimiz kerak va shu bilan birga grammatika komunikativ kontekstda taqdim etilishi kerak. Ma’lumki, ingliz tili grammatikasida ko‘p nozikliklar, istisno qoidalari mavjud bo‘lib bu boshqa til soxiblariga ingliz tilini xususan grammatikani o‘rganish qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Xozirgi vaqtida til o‘rganishdan ko‘ra (language learning) tilni o‘zlashtirish (language acquisition)ra e’tibor qaratilmoqda, bunda grammatikani yodlash orqali o‘rganish yaxshi natija bermasligi va mashg‘ulotlar interfaol bo‘lsa o‘qituvchilar grammatika qoidalari yaxshiroq anglashi va tushinishi kuzatilgan, ya’ni ushbu qoidalarni talabalar ingliz zabon til sohiblari ishtirokidagi jonli, autentik muloqotlar mobaynida tushunishlari kerak.

Chet el lingvisti Stephen D Krashen fikriga ko‘ra ham tilni o‘rganishda grammatika alohida axamiyatga ega bo‘lib uni o‘rgatishda (first “input” second “rule”) avvalo o‘quvchilar gaplarni, misollarni autentik vaziyatda qo‘llashni bilishlari, grammatik qoidani esa o‘sha autentik muloqot davrida tushunib olishlari mumkin degan prinsipni tavsiya etgan va bu prinsipga amal qilishimiz kerakligini qayd etadi. Bu esa S. Krashen. “Principles and Practice in second language acquisition” va S.Thombury “How to teach Grammar” kitoblarida hamda Nusrat Masud Khan “An Observation on Teaching Grammar Using Inductive Method” dissertatsiyalarida o‘z isbotini topgan . Bizning fikrimizcha ham grammatikani o‘rganish komunikativ amaliyotdan boshlanadi va bunda autentik materiallar (video, audio podkastlar, qolaversa internet resurslari va boshqa axborot komunikativ vositalar)ning o‘rni va axamiyati kattadir. Talabalar grammatikani o‘rganishlarida o‘qituvchilar mashg‘ulot jarayonida mavzuga doir autentik materiallarni tanlab ularga taqdim etishda maqsadli va samarali foydalansalar maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Grammatikani talabalarga qoidalari haqida tushuncha berish orqali o‘rgatish usuli ularni ushbu qoidalarni qachon, qayerda va qanday ishlatalishi haqida tasavvur qilishi qiyinlashadi, undan ko‘ra amaliy misollar orqali va muloqot kontekstida yetkazilsa ularni eslab qolishi osonlashadi. Bizning fikrimizcha ba’zi ingliz tili o‘qituvchilari

grammatikani o'rgatishda turli sabablarga ko'ra qiyinchiliklarga duch keladilar, chunki ushbu axborot vositalarini, internet resurslarni tanlay olmasligi, ikkinchi sababi media savodxonligi yo'qligi. Grammatika tilshunoslikning murakkab bo'limi bo'lib, til o'rganuvchilar grammatikani oson o'rganishlari uchun turli faoliyat metodlarini talab qiladi. Masalan, o'qituvchilar grammatika darslarini media orqali yaratishi va o'quvchilarga qiziqarli mavzular bo'yicha videolarni ko'rsatish va videoning audio yozuvini eshitishlarini taqdim etishi mumkin. Masalan video namoyish vaqtida talabalardan ingliz tilida gaplarni tinglab tushinishlari va bir vaqt ni o'zida gapning tuzilishiga, unda ot va fe'lni ishlatilishiga e'tibor qaratishlarini so'rashlari mumkin. Boshqa bir misol, mashg'ulotda audio podkastlardan foydalanilganda talabalar audio podkastni tinglab gapda ot, fe'l va boshqa so'zlarni, gaplarni ishlatilishini taxlil qilib tushunishlari mumkin. Talabalar videoda aktyor va aktrisani gaplarini grammatik strukturasiga ko'ra qo'llanilishini mustaqil ravishda o'zлari mushohada qilishlari mumkin. Ingliz tili o'qituvchilari grammatikani kontekstga asoslangan yondashuv yordamida kontestda yaratish va o'rgatish mumkin bo'lgan juda ko'p turli uslublar va turli axborot vosita (media)lar mavjud.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Stephen D Krashen. Principles and Practice in second language acquisition. University of southern California. Internet edition 2009. p 113
2. Nusrat Masud Khan an Observation on Teaching Grammar Using Inductive Method dissertation. 2014, 5 p
3. Stern, H.H. (1992). Issues and Options in English Language Teaching. Oxford: Oxford University Press
4. Thombury, S. (2002). How to teach Grammar. Essex: Pearson Education 50 p (Teso1 International Assosiation)
5. Yo'ldashev, I. (2023). O 'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA SAMARALI YO 'NALTIRISH PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK, IJTIMOIY MUAMMO SIFATIDA. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(19), 7-15.
6. Umaraliyevna, X. E. (2024). VOLEYBOLDA-STRATEGIYA VA TAKTIKA. Научный Фокус, 1(9), 274-279.
7. Po'latova, S., & Xudaybergenova, E. (2024). Shaxsning individual psixologik-xususiyatlari. Modern Science and Research, 3(1), 1-3.

8. Umaraliyevna, X. E. (2024). VOLEYBOLCHILAR SPORT TRENIROVKASINING VOSITALARI. SO ‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(1), 207-213.
9. Po'latova, S. (2023, November). KASB-HUNAR MAKTABLARIDA VOLEYBOL SEKSIYASI ISHINI REJALASHTIRISH. In Conference on Digital Innovation:" Modern Problems and Solutions".
10. Po'latova, S. (2023, November). JISMONIY TAYYORGARLIK VA UNI SHAKLLANTIRISH. In Conference on Digital Innovation:" Modern Problems and Solutions".
11. Po'latova, S. (2023, November). O ‘QUVCHILARDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT BO ‘YICHA MUNTAZAM MASHG ‘ULOTLARGA BARQAROR QIZIQISH VA KO ‘NIKMALARNI TARBIYALASH. In Conference on Digital Innovation:" Modern Problems and Solutions".
12. Po'latova, S. (2023, November). VOLEYBOLCHILARNI MUSOBAQA JARAYONLARIGA PSIXOLOGIK TAYYORGARLIK. In Conference on Digital Innovation:" Modern Problems and Solutions".